

ЎТМИШГА НАЗАР

9 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 9, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 9, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2026

Бош мухаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош мухаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Агзамова Гулчеҳра Азизовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ЎзР. ФА. Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика университети

Аминова Азиза Марксовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори (DSc),
Тошкент ирригация ва кишлок хужалигини механизациялаш мухандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайкулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз далаат педагогика институти

Гоффоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қариши давлат техника университети

Халикова Рахбар Эргашевна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Қариши давлат университети

Махкамova Надира Рахмановна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент ахборот технологиялари университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори (DSc),
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафаева Нодири Абдуллаевна
тарих фанлари доктори (DSc),
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Андижон давлат университети

Рашидов Ойбек Расулович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Расулов Абдуллажон Нуриддинович
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори (DSc), профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмутаевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори (DSc), профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори (DSc),
Озарбайжон давлат университети

Саипова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори (DSc),
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайджон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Курбанов Бахтияр Журабаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Наманган давлат университети

Хакимова Шоира Сағдуллаевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), UBS Тошкент филиали

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнура Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозоғистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Юсупов Ахмеджон Шоназарович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Urganch davlat universiteti

Тиллахжаева Хуршида Джумаваевна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Тошкент давлат техника университети

Одилов Абдор Анварович
тарих фанлари доктори (DSc), доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Исоков Бахтиёр Робиддинович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Наманган давлат университети

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети


Хасанова Нодира Ибрагимовна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти, Денов
тадбиркорлик ва педагогика институти

Турсунова Юлдуз Бобоқуловна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
ЎзР. ФА. Тарих институти

Азаматова Гулмира Байирбековна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Каримжонов Жасурбек Мухторжонович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD),
Ўзбекистон Миллий университети

1. Dilnoza Ganiyevna Atadjanova JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLOGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI.....	5
2. Anora Zayniddinovna Tog‘aeva TARIXIY ADABIYOTLARDA TURKISTONNING ROSSIYA IMPERIYASI BILAN SAVDO ALOQALARI XUSUSIDA.....	12
3. Sayfiddin Muxitdinovich Anarkulov SHAHAR MUHITIGA IJTIMOIIY-IQTISODIY MOSLASHUV JARAYONLARINING ANTROPOLOGIK TAHLILI.....	19
4. G‘ulom Masharipovich Djumamuratov, Muslima Maxmudovna Bazarova MARKAZIY OSIYO HUDUDI BO‘YLAB O‘ZBEK URUG‘LARINING JOYLASHUVI MANBALARDA.....	27
5. Farxodjon Odiljonovich Ismatullayev O‘ZBEKISTON–YEVROPA ITTIFOQI HAMKORLIGINING EVOLYUSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	32
6. Нигора Рахимджанова ЖАДИД НОШИРЧИЛИГИНИНГ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	40
7. Axmedjon Shonazarovich Yusupov ILK SAK QABILALARI MADANIYATI TARIXINI O‘RGANISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI.....	49
8. Amirbek Tag‘bayev B.X. KARMISHEVA ASARLARIDA ANTROPONIMLAR MASALASI.....	55
9. Nodira Nabiyevna Safixodjayeva MUSTAQILLIK YILLARIDA “MEHRIBONLIK” UYLARIDA YARATILGAN MODDIY- TEXNIK SHAROITLAR.....	61
10. Ozodaxon Botirjon qizi Abdunosirova, Ruxshona Akramjon qizi Abduvoidova UBAYDULLAXON DAVRIDA BUXORO XONLIGIDA ME’MORCHILIK TARAQQIYOTI...69	69
11. Gulom Masharipovich Djumamuratov O‘ZBEK URUG‘LARI TARKIBIDAGI OROL O‘ZBEKLARI TAHLILI.....	74
12. Rabiyaon Mansurbekovna Ibragimova DING‘ILDJA DEHQONCHILIK VOHASI GEOGRAFIK XUSUSIYATLARINING TARIXIY TAHLILI.....	80



Dilnoza Ganiyevna Atadjanova,
Abu Rayhon Berniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
mustaqil tadqiqotchisi

JANUBIY XORAZM VOHASIGA QADIMGI AHOLI MIGRATSIYASI: ARXEOLGIK VA TARIXIY MANBALAR TAHLILI

For citation: Dilnoza G. Atadjanova. ANCIENT POPULATION MIGRATION TO SOUTHERN KHOREZM: AN ANALYSIS OF ARCHAEOLOGICAL AND HISTORICAL SOURCES. Look to the past. 2026, vol. 9, issue 6.

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.21807230>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Janubiy Xorazm vohasiga aholi migratsiyasi muammosi qadimgi yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar va zamonaviy tarixshunoslik yondashuvlari asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida antik mualliflar asarlari, Ahamoniylar davri yozuvlari, Abu Rayhon Beruniy ma'lumotlari hamda xalq og'zaki ijodi namunalari qiyosiy jihatdan o'rganildi. Shuningdek, Amirobod, Quisoy, Mesheqli, Ucho'choq, Xumbuztepa va Xazorasp yodgorliklari materiallari asosida Janubiy Xorazmda miloddan avvalgi VII–VI asrlarda yuz bergan iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar migratsion jarayonlar bilan bog'liq ekanligi asoslangan. Tadqiqot natijalari Janubiy Xorazm urbanizatsiyasining shakllanishida janubiy hududlardan ko'chib kelgan dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatiga ega aholi guruhlari muhim o'rin tutganligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Xorazm, Janubiy Xorazm, migratsiya, urbanizatsiya, Xumbuztepa, Xazorasp, Amirobod madaniyati, Quisoy madaniyati, Ahamoniylar.

Ганиевна Дилноза Атаджанова,
независимый исследователь
Ургенчского государственного университета
имени Абу Райхана Беруни

МИГРАЦИЯ ДРЕВНЕГО НАСЕЛЕНИЯ В ЮЖНЫЙ ХОРЕЗМ: АНАЛИЗ АРХЕОЛОГИЧЕСКИХ И ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется проблема миграции населения в Южный Хорезм на основе древних письменных источников, археологических исследований и современных историографических подходов. В ходе исследования были проведены сравнительный анализ трудов античных авторов, надписей эпохи Ахеменидов, сведений Абу Райхана Беруни, а также образцов устного народного творчества. Кроме того, на материалах археологических памятников Амиробод, Куйсай, Мешекли, Учочок, Хумбузтепа и Хазарасп обоснована связь экономических и культурных изменений, произошедших в Южном Хорезме в VII–VI вв. до

н. э., с миграционными процессами. Результаты исследования показывают, что в формировании урбанизации Южного Хорезма важную роль сыграли группы населения, переселившиеся из южных регионов и обладавшие развитой земледельческой и ремесленной культурой.

Ключевые слова: Хорезм, Южный Хорезм, миграция, урбанизация, Хумбузтепа, Хазарасп, Амирободская культура, Куйсайская культура, Ахемениды.

Dilnoza G. Atadjanova,
Independent Researcher
Urgench State University named
after Abu Rayhan Beruni

ANCIENT POPULATION MIGRATION TO SOUTHERN KHOREZM: AN ANALYSIS OF ARCHAEOLOGICAL AND HISTORICAL SOURCES

ABSTRACT

This article examines the problem of population migration to Southern Khorezm based on ancient written sources, archaeological investigations, and modern historiographical approaches. The study employs a comparative analysis of the works of classical authors, Achaemenid inscriptions, information provided by Abu Rayhan Beruni, and examples of oral folk traditions. Furthermore, archaeological materials from the sites of Amirobod, Quyi-Soy, Meshekli, Uchochoq, Khumbuztepa, and Khazarasp are used to demonstrate that the economic and cultural transformations that occurred in Southern Khorezm during the 7th–6th centuries BCE were closely associated with migration processes. The findings indicate that groups of people who migrated from southern regions and possessed developed agricultural and craft traditions played a significant role in the formation of urbanization in Southern Khorezm.

Index Terms: Khorezm, Southern Khorezm, migration, urbanization, Khumbuztepa, Khazarasp, Amirobod Culture, Quyi-Soy Culture, Achaemenids.

Kirish:

Xorazmning qadimgi tarixini o'rgangan olimlar birinchi navbatda hududning geografik nomlanishiga e'tiborni qaratib, mohiyatini talqin qilishadi va shu bilan birga yuksak madaniyatga ega bo'lgan aholi hududda qayerdan kirib kelgan degan masalalarning muhimligiga e'tiborni qaratadilar. Bu masala ham hudud tarixini o'rganishdagi eng dolzarb va munozarali masala hisoblanadi.

XX asrning boshlarida qadimgi yunon-rim, ahamoniylar va "Avesto"dagi ma'lumotlarni tadqiq qilgan xorijlik olimlar xorazmliklar oldin Amudaryoning quyi oqimida yashamagan, ular dastlab janubda yashab qandaydir sabab bilan o'zlari yashab turgan hududlarni tark etib, Amudaryoning quyi oqimiga kelib qolganlar degan fikrlarni ilgari surganlar [15, C. 82–91.]. Qadimgi Yunonistonlik mualliflar va Rim yozma manbalarida "xorasmiylar" tarzida yozilgan. Skilak bilan Gekateyning asarida "parfiyaliklardan sharqda xorasmiylar yashaydi", Gerodotning Akes daryosi haqida va tog' daryosiga qurilgan to'g'on, Ahamoniylar davlatining 16-satrapligi tarkibi va Stefan Vizantiyskiy asarida "ularda Xorasmiya shahri bor" degan ma'lumotlarini tahlil qilgan olimlar dastlab xorasmiylar parfiyaliklardan sharqda yashagan degan fikrga kelganlar [4] [8] [13]. Shu tariqa fanda 100 yildan ortiq muhokamaga sabab bo'lgan "Katta Xorazm" g'oyasi ishlab chiqilgan. "Katta Xorazm" gipotezasi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar jarayoni uni rad qiluvchi g'oyalar ham bo'lgan. Talqin qilingan yozma manbalarda ma'lum bir etnik guruh, ya'ni xorasmiylarning yashagan hududi haqida ma'lumot qoldirilgan. Bugungi kunda shu davr bo'yicha shug'ullangan olimlar yozma manbalarda berilgan tarjima ma'lumotlar asosida xorasmiylar bugungi Xorazm vohasidan janubiy tomonda yashaganlar, keyinchalik aholi yashab turgan joylaridan qandaydir sabab natijasida Amudaryoning quyi oqimiga ko'chib kelganlar, degan g'oya ilgari surganlar.

Metodlar:

Mazkur tadqiqotda Xorazm vohasining qadimgi tarixiy-geografik shakllanishi, aholi migratsiyasi va “Katta Xorazm” gipotezasiga oid ilmiy qarashlarni tahlil qilishda kompleks yondashuv qoʻllanildi. Tadqiqotning metodologik asosini tarixiylik, xolislik va tizimlilik tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot davomida, avvalo, qadimgi yunon va rim mualliflari (Skilak, Gekatey, Gerodot, Stefan Vizantiyskiy), ahamoniylar davri yozuvlari, “Avesto”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari hamda oʻrta asr arab geograflari maʼlumotlari manbashunoslik usuli asosida oʻrganildi. Manbalarda uchraydigan “xorasmiylar”, “Xorasmiya”, “Xvarazmish” kabi atamalarning mazmuni va geografik lokalizatsiyasi qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, tarixiy-qiyosiy metod yordamida turli davrlarda faoliyat yuritgan tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan “Katta Xorazm” gipotezasi va unga qarshi qarashlar oʻzaro solishtirildi. Xususan, I. Gershevich, V. Xenning, B.I. Vaynberg, A. Asqarov, S.R. Baratov, E.V. Rtveladze va boshqa olimlarning ilmiy konsepsiyalari qiyosiy tahlil asosida baholandi.

Arxeologik materiallarni tahlil qilishda Amirobod, Quyisoy, Meshekli, Uchoʻchoq, Xumbuztepa va Xazorasp yodgorliklaridan olingan maʼlumotlardan foydalanildi. Moddiy madaniyat namunalari, jumladan sopol buyumlar, sugʻorish inshootlari, mudofaa devorlari va turarjoy qoldiqlari tipologik hamda qiyosiy-arxeologik usullar orqali oʻrganildi. Olingan natijalar Margʻiyona, Parfiya, Baqtriya va Seraxs vohalaridan topilgan arxeologik materiallar bilan solishtirildi.

Muhokama va natijalar:

Xorazmliklarning Amudaryoning quyi oqimiga koʻchib kelganligi haqidagi maʼlumotlar mahalliy manbalar va afsonalarida ham oʻz aksini topgan. Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida xorazmliklarning sharqdan koʻchib kelganligi haqida yozib qoldirgan. Bu asarda xorazmliklarning yil hisobi boshlanishi ham “Xorazmga odamlar kelib joylasha boshlaganidan” deb koʻrsatgan [4, B. 71.]. Lekin Abu Rayxon Beruniy bu joyida xorazmliklarning qayerdan kelganliklari haqida maʼlumot bermagan. Muallifning keyingi maʼlumotlarida esa, xorazmliklar Eron podshosi Kaykovusning oʻgʻli Siyovushning kelishi va uning oʻgʻli Kayxusravning turk podsholari ustidan hukmronlik qilganligini yozib qoldirgan. Shu tariqa Abu Rayxon Beruniyning maʼlumoti asosida, xorazmliklarning Eron podsholariga boʻysunganligini, shunindek, Xorazmga dastlab koʻchib kelgan odamlar siyovushiyarlardan oldin kelganligini anglashimiz mumkin.

Xorazm aholisi oʻrtasida saqlanib qolgan afsona va rivoyatlarda ham bir guruh podshoga boʻysunmagan aholining odam yashamaydigan joylarga surgun qilinganligi hikoya qilinadi. Keyinchalik esa, surgun qilingan aholi tashlab ketilgan joylarni obod qilganliklari va oʻzlari uchun qulay sharoitni yaratib, farovon turmush kechirganliklari ham bayon qilingan. Oʻz navbatida, xalq yodnomasida “Xorazm” soʻzining maʼnosini tushuntirishganda ham, odamlarning vohaga koʻchib kelganlaridan keyin, hududga nom berilganligini aytiladi. Bu afsona va rivoyatlar I.Jobborovning “Koʻhna xarobalar siri” asarida yozib qoldirilgan [9, B.6].

X asrda yashagan arab geografi Shamsiddin al-Muqaddasining asarida ham boshqacharoq talqinda saqlanib qolgan: “Qadim zamonlarda Sharq podshosi oʻz mamlakatida yashovchi 400 ga yaqin kishiga dargʻazab boʻlib, ularni aholi yashaydigan joylardan 100 farsax yerga eltib qoʻyishni buyuradi. Uzoq vaqt oʻtgandan keyin podsho oʻsha odamlardan xabar olib kelishni buyuradi. Podsho odamlari qaytib koʻrgan-bilganlarini tasvirlab berganlarida, podsho: “Ular goʻshtni nima der ekanlar”, - deb soʻrabdi. “Xar (yoki xavar)” deb javob beribdilar. U yana : “Oʻtinchi?”-deb soʻrabdi. Ular: “razm” deb javob beribdilar. Keyin podsho: “Ushbu mavzeni shularga taqdim qildim, u Xorazm (Xvarazm) deb atalsin [12, C. 44] [9, B.6.]”. Xorazm xalqi orasida saqlanib qolgan bu ikki xil talqindagi rivoyatda ham, vohaning va xalqning nomi bir guruh aholining kelganidan keyin maʼlum bir vaqtdan keyin nomlanganligini koʻrishimiz mumkin. Shu bilan birga ahamoniylarning yozma manbalaridagi “Xvarazmish” soʻzi uchraydi. “Xorazm” etimologiyasini talqin qilgan tadqiqotchilar ham ahamoniylar hukmronligi davrida Amudaryoning quyi oqimiga “Xorazm” atamasi ishlatila boshlaganligini koʻrsatishadi.

Xorazm vohasida o'tkazilgan arxeologik tadqiqot ishlari asosida ham ham bu afsonalarda qandaydir haqiqat bo'lishi mumkinligini, ya'ni ma'lum guruh aholining ko'chib kelganligi asoslanadi. XX asrning ikkinchi yarmidan Amudaryoning quyi oqimida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida mil.avv. VI asrda hududda iqtisodiy jihatdan tub o'zgarishlar sodir bo'lganligi aniqlangan. Shu bilan birga, jamiyatdagi bu iqtisodiy o'zgarishlar vohaning ilk temir davriga oid bo'lgan Amirobod va Quyisoy madaniyatlaridan butunlay farq qilishini ham ko'rsatishgan.

Amirobod madaniyati Amudaryoning Oqchadaryo deltasi hududlarida mil.avv. X–VIII asrlarda tarqalgan. Bu madaniyat tarqalgan hudud bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasining To'rtkul va Beruniy tumanlariga to'g'ri keladi. Amirobod madaniyati S.P.Tolstov tomonidan keng tadqiq qilingan bo'lib, uni madaniyatni yaratgan aholi dastlab Volga – Ural oralig'ida yashagan chorvador qabilalar bo'lgan deb ko'rsatadi va bu fikr boshqa arxeologlar tomonidan qo'llab quvvatlangan [7, C.148-149.]. Chorvador qabila mil.avv. I ming yillikning boshlarida Amudaryo havzasiga ko'chib kelganlar. Aholi dastlab ko'chib kelganda janubiy Oqchadaryo havzasida chayla, yarim yerto'lalar qurib, yaylov chorvachiligi va qair dehqonchiligi xo'jaligini yuritganlar. Sopol idishlarni qo'lda yasab, rangli naqsh bilan bezatganlar. Mil.avv. VIII – VII asrlarga kelganda, janubiy Oqchadaryo o'zaniga suvning kelishi kamayib, quriy boshlagan, bu esa, bu hududda aholining ilgari turmush tarzini davom ettirish imkonini kamaytirgan. Natijada amirobodliklar ikki guruhga ajralib, bir qismi faqat chorvachilik bilan shug'ullanib, Oqchadaryoning yuqori oqimiga qarab siljib borganlar [16, C.109-112.].

XX asrning 80- yillarida arxeolog V.I.Vaynberg tomonidan bu yerdan chorvadorlarning mil.avv. VIII – VI asrlarga oid Quyisoy madaniyati aniqlangan va tadqiq qilingan. Quyisoy madaniyatini yaratgan aholining moddiy buyumlari Amirobod madaniyati aholisining buyumlaridan farq qilgan. Tadqiqotchilar Quyisoy madaniyatiga quyi Sirdaryo bo'ylarida yashagan chorvador qabilalar asos solgan deb ko'rsatishadi. Quyisoy madaniyatini yaratgan aholi chayla va yarim yerto'lalarda yashaganlar. Asosiy xo'jalik turi chorvachilik, qair dehqonchiligi bilan metalga ishlov berish bo'lgan. Quyisoy madaniyatining Quyisoy-2, Sakarchaga, Yassiqir, Tarimqoya qishloqlari, Tumek-Kichijik mozor-qo'rg'onlari, Tarimqoya qabristoni kabi arxeologik yodgorliklari aniqlangan [5][6]. Sopol buyumlari qo'lda yasalgan va bir yarusli xumdonda pishirishgan. Quyisoy madaniyatiga oid yodgorliklardan charxda ishlangan sopol idishlari ham topilgan. Tadqiqotchilar bunday sopol idishlar janubiy dehqonchilik madaniyat jamoalarining bilan olib borilgan o'zaro aloqalari natijasida bu hududga kelib qolgan deb ko'rsatishadi. Sababi bu sopol buyumlar Yaz-II davriga oid sopol dafn tuzilmalari Quyusoy madaniyatidan farq qilgan. Quyisoy madaniyati aholisi yashagan davrda Xorazm vohasinining janubi-sharqiy qismida, ya'ni janubiy Xorazm hududida ko'chmanchi chorvadorlar istiqomat qilgan. Arxeologlar ko'chmanchi chorvadorlarning Meshekli va Ucho'choq yodgorliklarini aniqlangan [2, C.36-42].

Mil.avv. VIII – VII asrlar mobaynida janubiy Xorazm hududida ko'chmanchi chorvadorlarning izlari aniqlangan. Mil.avv. VI asrning boshlariga kelib, janubiy Xorazmda kulolchilik markazi bunyod etilgan. Mudofaa devorlariga ega bo'lgan qal'a bunyod etilib, kulolchilik buyumlarining barchasi charxda yasalgan va tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, savdo uchun ham kulolchilik buyumlari ishlab chiqarishgan. Bu aholining asosiy mashg'uloti ham dehqonlik bo'lgan.

Janubiy Xorazm vohasiga dehqonchilik madaniyatiga ega bo'lgan va hunarmandchilik sohasini chuqur egallagan aholining ko'chib kelganligini asoslangan bo'lsada, bir guruh aholining qachon ko'chib kelganligi va qaysi hududdan migratsiya qilganliklari masalasida tadqiqotchilar o'rtasida yagona fikr mavjud emas. I.Gershevich, V.Tarn, F.Altxaym, V.Xenning, V.M.Masson, B.G'ofurov, B.I.Vaynberg, I.V.Pyankovlar o'z tadqiqotlarida xorazmliklar dastlab Mari yoki Hirot xududlarida yashaganlar, bu aholining migratsiyasining asosiy sababi Ahamoniylarning hujumi deb ko'rsatganlar [11][22][23][24].

Ba'zi tadqiqotchilar Marg'iyona hududiga Kir II ning hujumi bilan bog'lasalar, A.Asqarov xorazmiylar Doro I ning soliq siyosatidan norozi bo'lganliklari uchun Hirot vodiysidan janubiy Xorazm vohasiga ko'chib ketishgan deb ko'rsatadi [1, B.206.]. Olim o'zining fikrini Doro I ning saroyidagi xizmatchi bo'lgan Skilakning "Sayohatnoma" asari asosida isbotlaydi. Skilakning

asaridan Gekatey va Gerodot foydalangan deb ko'rsatadi. Skilak Doro I ning topshirig'i bilan, ya'ni ahamoniylarga tobe hududlarni o'rganib, qaysi hudud qancha soliq to'lash imkoniga ega ekanligini aniqlash uchun jo'natgan edi. Akademik A.Asqarov xorazmliklarning migratsiyasiga sabab bo'lgan yana bir sababni ko'rsatadi. Bu fikrni Geradotning bergan ma'lumoti bilan asoslaydi, ya'ni Akes daryosiga qurilgan to'g'on natijasida, uning suvlari Hirot vodiysi tomonga burib yuborilgan. Natijada Hirot vodiysida yashagan xorasmiylarning o'lkasi suv ostida qolib ketgan va xorasmiylar quyi Amudaryo hududlariga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar deb ko'rsatadi [1, B.618].

A.Asqarov Skilak, Gekatey ma'lumotlarini talqini orqali xorasmiylarni mil.avv.519-513 yillarda "parflardan sharqda" bo'lgan deb fikrini asoslaydi. Doro I davrida, ya'ni mil.avv. 521-516 yillarga oid Behistun qoya toshidagi yozuvida, Persopol va Suza saroyi yozuvlarda Xorazmning ahamoniylarga qaram davlatlar qatorida sanab o'tilgan [14, C.24-42.]. Bu manbalarda xorazmliklarning joylashgan hududi masalasi bayon qilinmagan. Bu manbalarni tadqiq qilgan olimlar tasvirlarda berilgan xorasmiylarning ust-bosh kiyimlarini saklarnikiga o'xshashligi ko'rsatishadi. Shu bilan birga, shu davrdan boshlab quyi Amudaryo bo'ylaridagi davlatni "Xvarazmish" sifatida berilganligini asoslashga harakat qiladilar. Shu tariqa fanga Amudaryoning quyi oqimiga "Xorazm" atamasi mil.avv. VI asrdan boshlab aytila boshlagan degan fikrni ilgari suradilar.

S.R.Baratov janubiy Xorazm vohasida olib borgan tadqiqotlari asosida xorazmliklar dastlab Tajan-Herirud daryosining o'rta oqimida, asosan Seraxs vohasida yashaganlar deb ko'rsatadi [3, C. 29-38.]. Xorazmlikning janubiy Xorazm hududiga ko'chishini ikki bosqichda bo'lganligini ko'rsatadi. Birinchi migratsiya jarayonini mil.avv.VII asrning birinchi yarmi, ya'ni Midiya podshosi Kiaskar davri bilan bog'laydi. Ikkinchi migratsiya jarayoni Doro I davrida sodir bo'lib, bu davrda aholining aksariyat qismining ko'chib ketganligini ko'rsatadi. Bunda Doro I ning soliq siyosatidan norozi bo'lganliklari uchun ular quyi Amudaryoga hududlariga butunlay ko'chib ketgan deb ko'rsatadi [3]. S.R.Baratov tomonidan ilgari surilgan bu g'oya xalq orasida saqlanib qolgan afsonalardagi voqealar bayoniga va Abu Rayhon Beruniy ma'lumotiga to'g'ri keladi.

Janubiy Xorazm vohasida sodir bo'lgan tub o'zgarishlar ma'lum bir xalqning unumdor yerlarni izlab kelgan, ma'lum sabablar tufayli o'zi yashab turgan hududni tashlab kelgan aholining migratsiyasi bilan bog'lab talqin qilsak masalaning mohiyatini ochgan bo'lamiz. Ahamoniylar hukmronligi o'rnatilgach, qadimgi eron tilli jamoalar janubiy Xorazm vohasiga ko'chib borganligi sababli, ular borgan joyni, ularning ilgarigi nomi bilan ahamoniy yozma manbalarida "xvarazmish" deb atagan bo'lishlari mumkin. Aynan, janubiy Xorazm vohasida mil.avv. VI asrga oid turli madaniyat izlari, ya'ni Marg'iyona, Parfiya va Baqriyaning moddiy madaniyatiga o'xshash buyumlar topilgan [3].

E.V.Rtveladze Geradotning "Tarix" asarida tasvirlangan "Akes" daryosining lokalizatsiyasini aniq bir geografik hudud deb ko'rsatib bo'lmaydi deb hisoblaydi. U Geradotning bu geografik ma'lumotni kengroq hudud bilan qiyoslab, tahlil qilgan. O'rta Osiyoning janubig'arbiy hududlarining geografik tasviri Geradotning tasviriga mos tushadi deb ko'rsatadi [3]. Bu geografik tasvirlarni olim Geradotning hikoyasiga mos kelishini aytadi. Olim tahlili Geradot asarida berilgan yirik daryo -Akesning lokalizatsiyasini aniq berib o'tmagan. Yunonistonlik mualliflar Afiney va Gekatey asarlarida: "... parflardan quyosh chiqish tomonidagi tekisliklar (ekinzorlar va dalalar) va tog'larda xorasmiylar yashaydi. U tog'larda yovvoyi daraxtlar, tikanlik kinara, tol, yulg'un o'sadi" deb yozib qoldirgan.

N.A.Egamberdiyevaning tadqiqot ishida qadimgi Xorazmga ma'lum bir guruh aholining ko'chib kelishi asoslangan bo'lib, ularning turli davrlarda turli sabablar natijasida ko'chib kelishgan deb ko'rsatadi va ularning ko'chishiga sabab bo'lgan uch omilni ko'rsatadi. Bular birinchisi – Murg'ob daryosining qurishi, ikkinchisi – Kir II ning bosqini va uchinchi sabab – Doro I ning soliq siyosati deb ko'rsatadi. Tadqiqotchi fikricha, Quyi Amudaryo bo'ylariga kelgan aholi bo'sh yotgan, lekin dehqonchilik uchun qulay bo'lgan hududlarni o'zlashtirganlar. Mahalliy chorvador aholi bilan tinch qo'shnichilik munosabatlarini olib borganlar [11, C. 6.].

Marg'iyonadan topilgan xumdonlarning qurilish uslubi Xumbuztepadan topilgan xumdonlarga o'xshashligi ham aniqlangan. Xumbuztepaga kelib joylashgan aholining mohir kulol

ustalari bo'lishganligi tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etilgan. Olimlar tomonidan olib borilgan bunday tadqiqot ishlari janubiy Xorazm vohasiga janub aholining migratsiyasi sodir bo'lganligini va bu aholi o'zi bilan dehqonchilik va hunarmandchilik madaniyatini olib kelib, rivojlantirganliklarining guvohi bo'lamiz.

Aynan, shu aholi migratsiyasi natijasida janubiy Xorazmda urbanizatsion jarayonlar boshlangan. Uni Xazorasp va Xumbuztepa yodgorliklari asosida tadqiq qilishgan. Lekin tadqiqotchilar o'rtasida bu yodgorliklarining qurilgan vaqtini aniqlashda turli g'oyalar ilgari surilmoqda. O.A.Vishnevskaya, M.Mambetullaev, V.N.Yagodin, S.B.Bolelov, S.R.Baratovlar o'z tadqiqotlarida Xumbuztepa mil.avv. VII asrning oxirlari – VI asrning boshlarida qurilgan deb ko'rsatishadi [17, C.111][19, C. 104–118.]. S.R.Baratov Seraxs vohasidagi Yazpeta-II va Xorazm vohasidan topilgan sopol buyumlarning bo'yin qismini qizil rang bilan bo'yalganligi, shuningdek, kanallarning qurilishida o'xshashlik bor deb ko'rsatadi. S.R.Baratov xorazmliklar janubiy Xorazmga Kiaksar davrida (mil.avv. 625-585 yy.) kelgan bo'lishlari mumkin deb hisoblaydi. Olim Xumbuztepadan topilgan moddiy buyumlarni qiyosiy solishtirish orqali, ularning Seraxs vohasidagi Yaz II davriga oid Ulug'tepa yodgorligi bilan o'xshash tomonlari borligini ko'rsatadi. Shu bilan birga bu moddiy manbalar Shimoliy Baqtriya, Marg'iyona va Sug'd hududlaridan topilgan moddiy buyumlardan farq qilishini ko'rsatib o'tgan. Tajan-Xerurud hududlaridan aniqlangan sug'orish tizimining qurilish uslubining ham janubiy Xorazm hududidagi sug'orish tizimining ham o'xshashlik tomonlari borligini ko'rsatadi. Xazoraspning mudofaa devorlarining qurilishi bilan Ulug'tepaning qurilishi ham solishtirilganda o'xshashligi borligini ko'rsatadi. Bu bilan Seraxs vohasi bilan janubiy Xorazm vohasi bir xil madaniy makon bo'lgan bo'lishi mumkin degan g'oyani ilgari surgan.

Xulosa:

Xorazm vohasining qadimgi tarixini yozma manbalar, arxeologik materiallar va afsonaviy rivoyatlar asosida tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ushbu hududning etnik-madaniy shakllanishi murakkab va ko'p qatlamli tarixiy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan. Tadqiqotlar natijalari Xorazm aholisining kelib chiqishi va joylashuvi masalasida yagona, uzil-kesil qarash mavjud emasligini, balki turli ilmiy maktablar o'rtasida muqobil yondashuvlar shakllanganini ko'rsatadi.

Yozma manbalar, jumladan qadimgi yunon-rim mualliflari, ahamoniy yozuvlari hamda Abu Rayhon Beruniy asarlarida keltirilgan ma'lumotlar Xorazm hududiga aholining muayyan tarixiy davrlarda ko'chib kelganligi haqidagi gipotezani qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, xalq og'zaki rivoyatlarida ham Xorazmning shakllanishi migratsion jarayonlar bilan bog'liq holda talqin qilinadi, bu esa tarixiy xotira va ilmiy rekonstruksiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ko'rsatadi.

Arxeologik tadqiqotlar natijalari esa miloddan avvalgi X–VI asrlar oralig'ida Amudaryoning quyi oqimi va Janubiy Xorazm hududida sezilarli madaniy va iqtisodiy o'zgarishlar sodir bo'lganini tasdiqlaydi. Amirobod, Quvisoy va keyingi davri madaniyatlari o'rtasidagi farqlar yangi aholi guruhlarining kirib kelishi, xo'jalik shakllarining o'zgarishi hamda urbanizatsiya jarayonlarining boshlanishi bilan izohlanadi.

Shuningdek, Janubiy Xorazm hududida Marg'iyona, Parfiya va Baqtriya madaniyatlariga xos moddiy madaniyat elementlarining aniqlanishi bu hududning qadimda muhim migratsion va madaniy almashinuv hududi bo'lganligini ko'rsatadi. Bu esa Xorazmning shakllanishini faqat mahalliy evolyutsiya bilan emas, balki tashqi migratsion omillar bilan ham izohlash zarurligini anglatadi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Асқаров А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O'zbekiston, 2015. – 667 б.
2. Баратов С.Р. К проблеме истоков урбанизированной культуры низовий Амударьи. – Ташкент, 2014. – С. 36–42.
3. Баратов С.Р. Некоторые проблемы археологических исследований древних культур Хорезма // Ўзбекистон тарихи. – 2007. – № 4. – С. 22 – 34.

4. Абу Райхон Беруний. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2020. – 624 б.
5. Болелов С.Б. К вопросу о формировании ранний земледельческой культуры в низовьях Амударьи. // Scripta antiqva. Вопросы древней истории, филологии, искусства и материальной культуры. Альманах. Том 5. – Москва: Собрание, 2016. – С. 13 – 49.
6. Вайнберг Б.И. Памятники куюсайской культуры // Кочевники на границах Хорезма. – Москва: Наука, 1979. – С. 7–77.
7. Виноградов А.В., Итина М.А., Яблонский Л.Т. Древнейшее население низовий Амударьи (Труды ХАЭЭ. Т. XV). – Москва: Наука, 1986. – С. 148–149.
8. Геродот. История в девяти книгах. Пер. и примеч. Г.А. Стратановского. – Ленинград: Наука, 1972. – 600 с.
9. Жобборов И. Қўҳна харобалар сири. – Тошкент: Ўзбекистон давлат нашриёти, 1961.
10. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы. – Москва–Ленинград: Издательство АН СССР, 1959. – С. 125–127.
11. Пьянков И.В. Хорасмии Гекатея Милетского // Вестник древней истории. – 1972. – № 2. – С. 3–16.
12. Толстов С.П. Древний Хорезм. Опыт историко – археологического исследования. – Москва: МГУ, 1948. – 352 с.
13. Хлопин И.Н. Историческая география южных областей Средней Азии. – Ашхабад: Ёлим, 1983.
14. Хрестоматия по истории Древнего Востока. – Москва: Высшая школа, 1980. – С. 24–42.
15. Эгамбердиева Н.А. Археологические и археографические исследования истории древнего Хорезма (VI –IV вв. до н.э.). Диссертация на соис. уч. ст. канд. ист. наук. – Ургенч, 2001.
16. Юсупов Х.Ю. Поселение эпохи поздней бронзы на Канга-гыре // Скотоводы и земледельцы Левобережного Хорезма. – Москва: Наука, 1991. – С. 109–112.
17. Вишневская О.А., Рапопорт Ю.А. Городище Кюзелигыр. К вопросу о раннем этапе истории Хорезма // Вестник древней истории. – 1997. – № 2. – С. 145–160.
18. Ягодин В.Н. Генезис и формирование раннехорезмийской государственности // История государственности Узбекистана. – Ташкент, 2001. – С. 104–118.
19. Мамбетуллаев М. О формировании и развитии городской культуры в Хорезме // Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд–Ташкент, 2013. – С. 83–90.
20. Болелов С.Б. Ранний этап становления ремесленного производства на территории Хорезма (вторая половина I тыс. до н.э.) // Приаралье на перекрестке культур. – Самарканд–Ташкент: МИЦАИ, 2013. – С. 7–18.
21. Egamberdiyeva N.A. Amudaryo havzasi hududlarining qadimgi madaniyati (mil.avv. VIII-mil. IV asrlar). – Toshkent. Innovatsiya-ziyo. 2021.
22. Gershevitch I. The Avestan Hymn to Mithra. – Cambridge: Cambridge University Press, 1959.
23. Henning W.B. Zoroaster: Politician or Witch-Doctor? – Oxford: Oxford University Press, 1951.
24. Tarn W.W. Greeks in Bactria and India. – Cambridge: Cambridge University Press, 1938.

ЎТМИШГА НАЗАР

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ
LOOK TO THE PAST

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000